



DAVLAT ORGANLARI FAOLIYATINING OCHIQLIGI VA SHAFFOFLIGI - KONSTITUTSIYAVIY MAS'ULLIKNING MUHIM KAFOLATI

Xudoynazarova Sadoqat Chorshanbi qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20594132>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 06-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 08-iyun 2026 yil

KEY WORDS

oshkoralik, shaffoflik, konstitutsiyaviy mas'ullik, davlat organlari, axborot erkinligi, fuqarolik nazorati, ma'muriy huquq.

ABSTRACT

Ushbu maqolada davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi konstitutsiyaviy mas'ullikning muhim kafolati sifatida tahlil etiladi. Oshkoralik va shaffoflik tamoyillarining huquqiy asoslari, ularning fuqarolik jamiyati bilan munosabati, shuningdek O'zbekiston qonunchiligidagi mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollari muallif tomonidan yoritilgan.

Zamonaviy demokratik davlat qurilishining asosiy shartlaridan biri - davlat hokimiyati organlarining o'z faoliyati davomida fuqarolar va jamiyat oldida to'liq hisobot berishi, ya'ni konstitutsiyaviy mas'ullikning to'laqonli ta'minlanishidir. Ushbu mas'ullikning asosiy kafolatlaridan biri esa davlat organlari faoliyatining ochiqligi (oshkoraligi) va shaffofligidir.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-mayda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ushbu tamoyillar yanada kengaytirildi. Xususan, 34-moddada "Davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari har kimga o'z huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta'minlashi"ligi belgilangan. Biroq amaliyotda oshkoralik va shaffoflikning ta'minlanishi o'ziga xos huquqiy va tashkiliy muammolarni qamrab olmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda oshkoralik va shaffoflik ko'pincha bir ma'noda qo'llanilsa-da, ularning huquqiy mazmuni farqli hisoblanadi. Oshkoralik bu davlat organining o'z qarorlari va faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor etish majburiyatini anglatrsa, shaffoflik esa faoliyat jarayonlarining tushunarligi va kuzatiluvchanligi mezonidir hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy huquq nazariyasida oshkoralik tamoyili "demokratiya-mas'ullik-shaffoflik" uchligining asosiy bo'g'ini sifatida talqin etiladi. Bu uchlik quyidagicha asoslanadi: fuqarolar tomonidan saylangan yoki tayinlangan mansabdor shaxslar o'z faoliyati uchun saylovchilar yoki yuqori organlar oldida javob berishi lozim, bunday javobgarlik esa faqat axborotga erkin kirish imkoni mavjud bo'lgan holatdagina samarali bo'ladi.

Xalqaro hujjatlar nuqtai nazaridan, BMTning "Yaxshi boshqaruv tamoyillari" va Yevropa Kengashining "Axborot erkinligi to'g'risida"gi Konvensiyasi davlat organlarining *proaktiv oshkoralik* majburiyatini ya'ni so'rovlarni kutmasdan ham axborotni e'lon qilishini belgilaydi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, oshkoralik va shaffoflikning yuqori darajasiga erishgan davlatlar (Finlandiya, Estoniya, Janubiy Koreya) bir qator umumiy xususiyatlarga ega:

- mustaqil axborot komissarining mavjudligi;
- axborot taqdim etishni rad etish uchun aniq va chekli asoslar ro'yxati mavjudligi;
- axborot so'rovi rad etilganda teskari isbotlash vazifasi davlat organiga yuklatilishi.

Estoniya tajribasi alohida qiziqish uyg'otadi ya'ni bu davlatda 2000-yildan boshlab "X-Road" tizimi orqali barcha davlat organlari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va fuqarolar uchun to'liq raqamli shaffoflik ta'minlangan. O'zbekiston uchun ushbu tajriba, xususan, raqamli oshkoralikni huquqiy jihatdan mustahkamlash borasida namuna bo'lishi mumkin.

Davlat organlari faoliyatining oshkorligi va shaffofligi o'z-o'zicha maqsad emas, balki konstitutsiyaviy mas'ullikning ta'minlanishi uchun zarur sharoitdir. Konstitutsiyaviy mas'ullik deganda, biz nafaqat mansabdor shaxslarning huquqiy javobgarligini, balki hokimiyat organlarining xalq oldidagi siyosiy hisobdorligini ham tushunamiz. Ushbu bog'liqlik uch bosqichda namoyon bo'ladi: avvalo, *shaffoflik fuqarolarga zarur axborotni olish imkonini beradi*; keyin esa ushbu *axborot asosida fuqarolar baholash va munosabat bildirish imkoniga ega bo'ladi*; vanihoyat, *ushbu munosabat saylov jarayonida yoki ommaviy nazorat mexanizmlari orqali siyosiy ta'sirga aylanadi*. Ushbu zanjirdagi biror bo'g'in uzilsa, konstitutsiyaviy mas'ullik nominal xarakter kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, amalga oshirilgan tahlil asosida, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi faqat siyosiy ixtiyorlik emas, balki huquqiy majburiyat sifatida mustahkamlanishi zarur. Mavjud normativ-huquqiy hujjatlar bazasini xalqaro standartlarga uyg'unlashtirib, moslash, xususan, axborot so'rovi rad etilganda, isbotlash yukini davlat organiga o'tkazish masalasi ko'rib chiqilishi lozim. Raqamli axborot platformalarining huquqiy maqomini aniqlashtirish va fuqarolar uchun samarali shikoyat mexanizmini takomillashtirish masalasi ham juda o'rinli hisoblanadi. Ushbu masalalar O'zbekistonda davlat boshqaruvi islohotlarining davomiy xarakter kasb etayotganligi munosabati bilan amaliy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash joiz. Huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotida ushbu xulosalardan foydalanish yuqori ijtimoiy-huquqiy samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi - Toshkent: O'zbekiston, 2023.
 2. "Axborot erkinligi to'g'risida"gi Qonun., O'zbekiston Respublikasining 12-dekabr 2002-yildagi, 439-II-son qonuni.
 3. "Davlat organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonun. O'zbekiston Respublikasining 5-may 2014-yildagi, O'RQ-369-son qonuni.
1. www.lex.uz
 2. www.strategy.uz